

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ATAMURODOV SAIDMUROD YAXYOYEVICH**

**XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI TAHLILI VA  
AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri — 2025-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
economical sciences**

**Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich**

Хо‘jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlari tahlili va auditini  
takomillashtirish..... 3

**Атамуродов Саидмурод Яхеевич**

Совершенствование анализа и аудита денежных потоков в  
хозяйствующих субъектах..... 25

**Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich**

Improving the analysis and audit of cash flows in economic entities..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 56

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ATAMURODOV SAIDMUROD YAXYOYEVICH**

**XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI TAHLILI VA  
AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri -2025-yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Iqt2464 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Maxmudov Azamat Normuradovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Rizayev Nurbek Kadirovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Alikulov Abdimo'min Ismatovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor


**Yetakchi tashkilot:** **"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqotlar universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).



**S.U. Mexmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

**U.V. Gafurov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

**S.K. Xudoyqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
huzuridagi ilmiy seminar raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida to‘qimachilik sanoati hajmi 2024-yilda 1976,84 milliard AQSH dollariga baholangan bo‘lib, prognozlariga ko‘ra, bozor hajmi 2034-yilgacha 4 trillion dollardan oshishi kutilmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotida 2024-yil holatiga 34,9 milliard AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb etilib, 242 ta yirik va o‘rta loyiha ishga tushirilgan. Ayniqsa, to‘qimachilik sanoati eksport salohiyati bilan ajralib turib, 241,9 million dollarlik mahsulot xorijga eksport qilingan va u umumiy eksportning 34,6 foizini tashkil etadi. Tarmoqning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 8,8 foizga yetib, iqtisodiy o‘shishning muhim omiliga aylangan. Prezident farmoni<sup>1</sup>ga muvofiq, 100 million dollarlik yangi investitsiya mablag‘lari ajratilishi va 2027-yilgacha ipkalavani to‘liq qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bunday sharoitda korxonalarining likvidligi va to‘lov qobiliyatini aniqlik bilan baholash, investitsion muhitni yaxshilash, risklarni kamaytirish va biznes shaffofligini ta‘minlash orqali xalqaro moliyaviy bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish zarurati yuzaga chiqmoqda.

Jahon amaliyotida pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni tuzish, tahlil va audit qilish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Raqamli texnologiyalar va analitik dasturiy ta‘minotlardan foydalanish samaradorligini oshirish, pul oqimlari prognozlash modellarini takomillashtirish, risklarni baholashning ilg‘or metodologiyalarini joriy qilish, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga muvofiqlik darajasini ta‘minlash va auditorlik jarayonlarida sun‘iy intellekt hamda blokcheyn texnologiyalarini integratsiyalash orqali shaffoflik va ishonchlikni oshirish masalalari xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlari tahlili va auditini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda turli shakldagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, pul mablag‘larining yetishmovchiligini oldini olish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yangicha shakl va mohiyatga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashkil etilishi, albatta, hisob, tahlil va audit tizimini mazmunan boyitishni talab qiladi. Bu esa, tahlil va auditni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Pul mablag‘larining harakatini tartibga solish, ularning nazoratini samarali tashkil etish, yangi manbalarni izlab topish va ularning holatini muntazam tahlil qilish, shuningdek, pul oqimlari harakati to‘g‘risidagi hisobot tahlili va auditini xalqaro tajribalar asosida o‘tkazishni ta‘minlash borasida yangi yondashuvlarni tatbiq etishning obyektiv zarurligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi PF-71-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 19-sentabrdagi PQ-3946-son “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.05.2024 yildagi PF-71-son

bajarishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag‘lari harakati bilan bog‘liq buxgalteriya hisobi va hisoboti bazisli ma’lumotlari asosida pul oqimlari tahlili va auditini takomillashtirishning konseptual asoslari va ularning amaliy jihatlarini o‘rganish yuzasidan ko‘plab xorijiy iqtisodchi olimlardan Bernshteyn L.A., Breg S., Brigham Y., Houston J., Subramanyam K.R., Van Horne J.C., Wachowicz J.M., Mc. Kenzie V., Knight R., Helfert E.A. va boshqalar tadqiqot olib borganlar<sup>2</sup>. MDX olimlaridan Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimlarini tahlili, audit va boshqarishning muhim jihatlarini o‘rgangan olimlarning ilmiy ishlari orasida Лазерева А.В., Кокина Т.Н., Мирошниченко Т.А., Мохаммад Т.Ж. kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarini alohida ta’kidlash lozim<sup>3</sup>.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Axmedjanov K.B., Dusmuratov R.D., Xasanov B.A., Ibragimov A.K., Pardayev M.Q., Isroilov B.I., To‘laxodjayeva M.M., Ergasheva Sh.T., Qo‘ziyev I.N., Avlokulov A.Z., Xajimuratov N.Sh., Rahimov M.Y., Tashnazarov S.N., Ishonqulov N.F., Raxmonov Sh.Sh., Abdiyeva D.A. va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan<sup>4</sup>.

<sup>2</sup>Bernshteyn, L.A. (2003). “Analysis of Financial Statements”. Mc.Graw-Hill; Breg, S. (2008). “Financial Reporting and Analysis”. South-Western; Brigham, Y. & Houston, J. (2013). “Fundamentals of Financial Management”. Cengage Learning; Subramanyam K.R. Financial statement analysis. 11th edition. New York, Mc Graw-Hill Education, 2016. — 814 pages.; Van Horne, J.C. & Wachowicz, J.M. (2008). “Fundamentals of Financial Management”. Prentice Hall; McKenzie, V. (2012). “Accounting for Managers”. Wiley; Knight, R. (2015). “Financial Management: Theory and Practice”. Oxford University Press; Helfert, E. A. (2001). “Techniques of Financial Analysis”. McGraw-Hill.

<sup>3</sup>Лазерева Анна Владимировна. Совершенствование стратегического управленческого учета, анализа и аудита денежных потоков коммерческой организации: диссертация Ростов-на-Дону, 2008.- 308 с.; Кокина Т.Н. (2009). Учет денежных средств и анализ их использования в коммерческих организациях. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 22 стр.; Мирошниченко Т.А. Совершенствование учета и анализа денежных потоков на сельскохозяйственных предприятиях. Специальность 08.00.12 — Бухгалтерский учет, статистика Автореферат; Мохаммад Т.Ж. Развитие методического инструментария анализа денежных потоков строительных организаций на основе международных стандартов финансовой отчетности. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 30 стр.

<sup>4</sup>Axmedjanov, K.B. (2020). “Audit va moliyaviy tahlil”. Toshkent: “Iqtisodiyot va ta’lim” nashriyoti, 112-126 b.; Dusmuratov R.D., Boltayev A.S. “Moliyaviy tahlil. -T.: “Iqtisod-moliya”, 2020. 455 b.; Dusmuratov, R. D. (2019). “Pul oqimlarini boshqarishning zamonaviy usullari”. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 78-93 b.; Xasanov B.A. va boshqalar. Moliyaviy tahlil. Darslik. T.: Iqtisodiyot, 2022. – 722 b.; Xasanov B.A. Ibragimov A.K. (2018). “Moliyaviy barqarorlik va uning tahlili”. Toshkent: “Iqtisodiyot va moliya” nashriyoti, 134-150 b.; Pardayev M.Q., Abduraimov I.T., Isroilov J.I., Isroilov B.I. Korxonalarda moliyaviy hisobotlar tahlili. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Soliq Akademiyasi”, 2009. – 76 b.; To‘laxodjayeva, M.M. (2023). “Raqqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy boshqaruv”. Toshkent: “Fan va ta’lim” nashriyoti, 40-55 b.; Ergasheva Sh.T. Международные стандарты финансовой отчетности. Учебник. – T.: ТГЭУ, 2021 г. – 310 с.; Qo‘ziyev I.N., Avlokulov A.Z., Ochilov F.Sh., Sherimbetov I.X. Audit-2. Darslik. -T.: “NIHOL-PRINT”, 2023. — 304 b.; Xodjayeva M., Xojimuratov N., Maxmudov A. va Atamurodov S. Auditning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. T.: 2023-yil.; Raximov M.Yu., Qalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. -267 b.; Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik – T.: «Iqtisod-Moliya», 2019-yil; Tashnazarov S.N. “Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish (MHXS va ilg‘or tajribalar asosida). Monografiya. T.: “Turon”, 2017-yil. 170-bet; Ishonqulov N.F. Pul oqimlarining hisobi va tahlilini takomillashtirish. (Qishloq xo‘jaligi korxonalari misolida). 08.00.08. – “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” ixtisosligi bo‘yicha iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. – Toshkent, 2007. -48 b.; Raxmonov Sh.Sh. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pul mablag‘lari hisobi va tahlilini takomillashtirish. 08.00.08. – “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” ixtisosligi bo‘yicha Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. – Toshkent, -59 b; Abdiyeva D.A. “Innovatsion-investitsion faoliyatdan samarali foydalanish asosida tarmoqning eksport salohiyatini

Mavzu doirasida, yuqoridagi sanab o‘tilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlari tahlili va auditini takomillashtirish bo‘yicha xalqaro amaliyotga mos ravishda umumiy tavsiyalar taqdim etilgan bo‘lsada, bugungi kunda “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tizimidagi korxonalarda elektron tranzaksiyalarda pul oqimlarini tezkor tahlil qilish va auditini xalqaro tajribalarga adaptatsiya qilish tendensiyalari, shu bilan birga, xalqaro amaliyotda qo‘llanilayotgan ilg‘or usullarni joriy etish orqali takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilib o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta‘minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlari tahlili va auditini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

pul oqimi tushunchasining mazmunini tadqiq etish, nazariy asoslarini tahlil qilish va bu borada mualliflik yondashuvini shakllantirish;

“Innovatsion faoliyat bo‘yicha pul tushumlari va to‘lovlari” nomli 070-satrni hisob siyosatiga kiritish taklifini asoslash;

korxonada pul oqimlarining barqarorligini ta‘minlash maqsadida ko‘p omilli tahlil usullarini qo‘llash va uning ta‘sirini aniqlash;

pul aylanmasi davomiyligi va o‘sish dinamikasiga ta‘sir etuvchi ichki va tashqi omillarni tasniflash va tahlil qilish;

pul oqimlarini tahlil qilishda an‘anaviy va zamonaviy texnologiyalarning samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash va aniqlik darajasini solishtirish;

pul oqimlarini biznes jarayonlar, mahsulot turlari, bozor segmentlari va mijoz guruhlari bo‘yicha segmentlashtirilgan tahlilini joriy etish;

investitsion faoliyatga doir pul oqimlariga ta‘sir etuvchi omillarni asosida korxonaning 2028-yilgacha bo‘lgan prognozini ishlab chiqish;

auditning turdosh xizmatlarini ko‘rsatishda qo‘llaniladigan transformatsiya usullari va shakllarini ishlab chiqish;

pul oqimlari auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tizimidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlarining tahlili va auditini takomillashtirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, sintez, baholash, ekspert baholash, guruhlashtirish va prognozlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shakliga "Innovatsion faoliyat bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari" nomli 070-satirini hisob siyosatiga kiritish, ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va baholash mezonlarini qo'llash orqali innovatsion moliyaviy oqimlarni alohida aniqlash va tahlil qilish taklifi asoslangan;

pul oqimlarini tahlil qilishning an'anaviy va zamonaviy texnologiyasini qo'llashning samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashda an'anaviy tekshiruvda "O'rtacha" (50-60%), blokcheyn texnologiyasidan foydalangan holda tekshirishda "Yuqori" (70-80%), sun'iy intellekt va mashinali o'rganishda "Juda yuqori" (90% dan yuqori) aniqlik darajasini ta'minlash taklifi asoslangan;

xo'jalik yurituvchi subyektlari pul oqimlarining biznes jarayonlar (BJ), mahsulot turlari (MT), bozor segmentlari (BS) va mijoz guruhlari (MG) bo'yicha segmentlashtirilgan tahlilni joriy etish asosida foyda darajasi nisbatan yuqori faoliyat segmentlarini aniqlash orqali pul oqimlari auditining samaradorligini oshirish asoslangan;

"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalar investitsion faoliyatga doir pul oqimlariga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro ta'sirini ifodalovchi ekonometrik model asosida pul oqimlarining 2028-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

hisob siyosatiga 070-satirni kiritish orqali innovatsion tushum va to'lovlar alohida ajratilib, ularning tahlili uchun maxsus ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan;

"Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot"ni xalqaro standartlarga moslashtirishda "Chek-list"lardan foydalanish orqali auditorlik tekshiruvlarini soddalashtirish va natijalarining ishonchliligini oshirish bo'yicha tavsiyalar shakllantirilgan;

an'anaviy, blokcheyn va sun'iy intellekt asosidagi tahlil usullari solishtirilib, har birining aniqlik darajasi va auditga ta'siri amaliy jihatdan asoslab berilgan;

xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlarini biznes jarayonlar, mahsulot turlari, bozor segmentlari va mijoz guruhlari bo'yicha segmentlashtirilgan holda tahlil qilish usullari bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan;

to'qimachilik korxonalarida investitsion faoliyatga doir pul oqimlariga ta'sir etuvchi omillar tasniflanib, ularning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilish hamda prognoz natijalari asosida strategik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishida qo'llanilgan nazariy-uslubiy yondashuv va usullarga, rasmiy manbalardan olingan axborotlarga, xususan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy statistik axborotlariga, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomalar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlari tahlili va auditini tashkil etish hamda takomillashtirishda mavjud muammolarni hal etish bo'yicha chora-tadbirlar, ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishida keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan pul mablag'lari harakati tahlili va auditini tashkil etish va o'tkazishda, shuningdek oliy ta'lim muassasalarida "Moliyaviy hisobot tahlili" va "Audit" kabi fanlarni o'qitishda qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul

oqimlari tahlili va auditini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shakliga "Innovatsion faoliyat bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari" nomli 070-satrini hisob siyosatiga kiritish, ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va baholash mezonlarini qo'llash orqali innovatsion moliyaviy oqimlarni alohida aniqlash va tahlil qilish taklifi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi "Betlis tekstil" MChJ va "Osiyo grand tekstil" MChJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 26-maydagi 03/25-1114-sonli, "Betlis tekstil" MChJning 2024-yil 26-sentyabrdagi 173-sonli, "Osiyo grand tekstil" MChJning 2024-yil 20-sentyabrdagi 24-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shakli takomillashib, "Innovatsion faoliyat bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari" (070-satr)ni hisob siyosatiga kiritish orqali innovatsion moliyaviy oqimlarni alohida aniqlash va tahlil qilish imkoni yaratilgan;

pul oqimlarini tahlil qilishning an'anaviy va zamonaviy texnologiyasini qo'llashning samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashda an'anaviy tekshiruvda "O'rtacha" (50-60%), blokcheyn texnologiyasidan foydalangan holda tekshirishda "Yuqori" (70-80%), sun'iy intellekt va mashinali o'rganishda "Juda yuqori" (90% dan yuqori) aniqlik darajasini ta'minlash taklifi "O'zbekiston Auditorlar palatasi", "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi va uning tarkibidagi korxonalar tomonidan foydalanilgan ("O'zbekiston Auditorlar palatasi"ning 2025-yil 12-maydagi 12.05/01-sonli dalolatnomasi, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 26-maydagi 03/25-1114-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yondashuvni amaliyotga joriy etish natijasida audit jarayonida pul oqimlarini tahlil qilishning zamonaviy texnologiyasini qo'llash orqali samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashda aniqlik darajasini oshirish imkoni yaratilgan;

xo'jalik yurituvchi subyektlari pul oqimlarining biznes jarayonlar (BJ), mahsulot turlari (MT), bozor segmentlari (BS) va mijoz guruhlari (MG) bo'yicha segmentlashtirilgan tahlilni joriy etish asosida foyda darajasi nisbatan yuqori faoliyat segmentlarini aniqlash orqali pul oqimlari auditining samaradorligini oshirish taklifi "O'zbekiston Auditorlar palatasi" va "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi hamda uning tarkibidagi "Osiyo grand tekstil" MChJga joriy etilgan ("O'zbekiston Auditorlar palatasi"ning 2025-yil 12-maydagi 12.05/01-sonli dalolatnomasi, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 26-maydagi 03/25-1114-sonli, "Osiyo grand tekstil" MChJning 2024-yil 20-sentyabrdagi 24-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangiliklarni amaliyotga joriy etish natijasida blokcheyn texnologiyasini pul oqimlari auditiga tatbiq etish orqali ma'lumotlarning o'zgarimasligi, shaffofligi va xavfsizligi ta'minlanib, manipulyasiya va qalbakilashtirishlarning oldini olish imkoni yaratilgan;

"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalar investitsion faoliyatga doir pul oqimlariga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro ta'sirini ifodalovchi ekonometrik model asosida pul oqimlarining 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari "Betlis tekstil" MChJ va "Osiyo grand tekstil" MChJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 26-maydagi 03/25-1114-sonli, "Betlis tekstil" MChJning 2024-yil 26-sentyabrdagi 173-sonli, "Osiyo grand tekstil" MChJning 2024-yil 20-sentyabrdagi 24-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangiliklarni amaliyotga joriy etish

natijasida to‘qimachilik korxonalarida investision faoliyatga ta’sir etuvchi omillarni tasniflash va 2028-yilgacha bo‘lgan prognoz modelini ishlab chiqish orqali investision qarorlarni yaxshiroq rejalashtirish va moliyaviy oqimlarni maqbullashtirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, shu jumladan, 3 ta respublika va 5 ta xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan va ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, jumladan, 6 ta respublika va 3 ta nufuzli xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi tarkiban kirish, uchta bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan. Dissertatsiya ishining hajmi 137 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo‘lib, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatib o‘tilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi va dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obykti, predmeti va usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati va joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashir etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Pul oqimlari tahlili va auditining nazariy va uslubiy asoslari”** deb nomlanib, unda pul oqimlarining iqtisodiy mohiyati, ularni tasniflash va baholashning zarurati, pul oqimlari tahlilining tashkiliy-uslubiy jihatlari, pul oqimlari auditi bo‘yicha xorijiy tajribasi va ulardan foydalanish imkoniyatlari keltirilgan.

Pul oqimlari har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy barqarorligi va rentabelligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Ularning shakllanishi, harakati va samaradorligini tahlil qilish orqali korxonaning investitsiyaviy salohiyati, operatsion faoliyati hamda moliyaviy majburiyatlarini bajarish qobiliyati to‘g‘risida muhim xulosalar chiqarish mumkin. Mazkur dissertatsiyada pul oqimlari tahlili va auditining nazariy hamda uslubiy asoslari chuqur o‘rganilib, xorijiy tajriba va milliy amaliyotning integratsiyasi orqali tahlil va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari ilmiy jihatdan tadqiq qilindi.

Tadqiqotlarda natijasida “Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot”ni xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy axborotlarining ishonchliligini oshirishga yordam beradi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlarini “Pul oqimining davomiyligi”, “Intensivlik” va “O‘sish dinamikasi” kabi guruhlash mezonlari, korxonalarining pul oqimlarini yanada chuqurroq tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi (1-jadval).

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida hozirgi hisobot shaklini milliy standartlar asosida o‘rganish va xalqaro talablar bilan solishtirish va mos kelmagan qismlarni aniqlash, hisob-kitoblarni

bilvosita usuldan to‘g‘ridan-to‘g‘ri usulga o‘tkazish (agar kerak bo‘lsa) va soliqlar va foiz to‘lovlarini alohida ajratish, investitsion faoliyat bilan bog‘liq operatsiyalar va moliyaviy faoliyat operatsiyalarini to‘g‘ri tasniflash, mahalliy valyutani xalqaro valyutaga aylantirish (IFRS va amaldagi kurs bo‘yicha), ayniqsa, chek-listdan foydalanish bo‘yicha har bir bosqichning bajarilganini va xalqaro standartlarga mos kelish yoki kelmasligini alohida jadvalarida o‘rganish zarur deb hisoblaymiz.

**1-jadval**

**Xalqaro standartlar asosida pul oqimlarini guruhlash mezonlari<sup>5</sup>**

Guruhlash mezonlari	Standart guruhlash (IFRS va GAAP)	Kengaytirilgan guruhlash
Asosiy faoliyat	Sotuvlardan tushumlar, maoshlar, ijara haqlari	Davomli pul oqimlari, yuqori intensivlikka ega pul oqimlari, barqaror pul oqimlari
Investitsion faoliyat	Uzoq muddatli aktivlarni sotib olish/sotish, sarmoyalar	Bir martalik pul oqimlari, past intensivlikka ega pul oqimlari, o‘zgaruvchan pul oqimlari
Moliyaviy faoliyat	Aksiyalar chiqarish/qaytarish, qarz olish/to‘lash	Davomli yoki bir martalik pul oqimlari, yuqori yoki past intensivlikka ega pul oqimlari, barqaror yoki o‘zgaruvchan pul oqimlari
Pul oqimining davomiyligi	Mavjud emas	Davomli pul oqimlari, bir martalik pul oqimlari
Intensivlik	Mavjud emas	Yuqori intensivlikka ega pul oqimlari, past intensivlikka ega pul oqimlari
O‘shish dinamikasi	Mavjud emas	Barqaror pul oqimlari, o‘zgaruvchan pul oqimlari

Transformatsiya jarayonida har bir operatsiyani xalqaro standart talablariga mos ravishda ajratish, chek-listdan foydalanish, hisobotda xalqaro talablarga mos kelmagan qismlarni aniqlash, tuzatishlarni amalga oshirish, valyuta konvertatsiyasi, foizlar va soliqlarni to‘g‘ri tasniflash, tayyor hisobotni xalqaro talab ketma ketligiga rioya qilish zarur. Bunda “Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot”ni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish orqali milliy standartlar va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablari o‘rtasidagi farqlarni quyidagi 2-jadval asosida taqqoslashimiz mumkin.

Ushbu jadvalda pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) moslashtirish uchun zarur bo‘lgan transformatsiya talablari tizimli ravishda bayon etilgan. Shuningdek, milliy va xalqaro yondashuvlar o‘rtasidagi asosiy farqlar yuzasidan pul oqimlarini tasniflash, hisoblash usullari, valyuta konvertatsiyasi, foizlar va dividendlar, soliqlar, investitsion va moliyaviy faoliyatlar hamda hisobot shakli bo‘yicha har bir ko‘rsatkich bo‘yicha aniq taqqoslanib, amaliy o‘zgartirish yo‘nalishlari ko‘rsatilganligi hisobot tuzuvchilar, auditorlar va tahlilchilar uchun muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Jadvalda keltirilgan transformatsiya talablari orqali milliy hisobot shakllarini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayoni soddalashtiriladi, natijada moliyaviy axborotning ishonchliligi, taqqoslanuvchanligi va global talablarga muvofiqligini ta‘minlashga imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv audit jarayonida aniqlikni oshiradi hamda hisobot elementlarini faoliyat turlari bo‘yicha to‘g‘ri tasniflash imkonini beradi.

Iqtisodiyotda innovatsiyalar va innovatsion faoliyatning rivojlanishi ushbu

<sup>5</sup> Muallif ishlanmasi

jarayonlar bilan bog‘liq muomalalarni pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotda haqqoniy aks ettirishni talab etadi. Ilmiy ishda innovatsion faoliyatga tegishli pul oqimlarining kirimi va chiqimini samarali boshqarish maqsadida moliyaviy hisobotning “Pul oqimlari to‘g‘risida hisobot” 4-shakliga 070-satrn kiritish orqali pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni takomillashuviga erishish mumkin. Buning uchun 2024-yil 6-avgustdagi 3544-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vaziri buyrug‘i”ning 51 va 52-bandlariga asoslanib, hisob siyosatining 110-bandiga quyida taklif etilayotgan hisobot bo‘yicha o‘zgartirishlarni kiritish va korxonah rahbarining rasmiy buyrug‘ini chiqarish zarur bo‘ladi.

## 2-jadval

### Milliy va xalqaro standartlar asosida pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni transformatsiya qilish talablari<sup>6</sup>

Ko‘rsatkich	Standartlar		Transformatsiya talablari
	Milliy	Xalqaro(IFRS)	
<b>Pul oqimlarini tasniflash</b>	Birlamchi daromad va xarajatlarni umumlashtiradi	Operatsion, investitsion va moliyaviy oqimlarga bo‘linadi	Hisobotni uch faoliyat turiga ajratish zarur
<b>Operatsion oqimlarni hisoblash usuli</b>	Moliyaviy faoliyat natijasiga asoslangan	To‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita usulda ko‘rsatiladi	Bilvosita usulda qayd etilgan ma‘lumotlar xalqaro uslubga o‘tkaziladi
<b>Valyuta farqlari</b>	Mahalliy valyutada ifodalangan	Hisobot global valyutada talab qilinadi	Pul oqimlarini amaldagi kurs bo‘yicha xalqaro valyutaga aylantirish kerak
<b>Foizlar va dividendlar</b>	Barcha oqimlar bir toifada ko‘rsatiladi.	Foiz daromadi/investitsiya oqimi va xarajatlar moliyaviy oqimga ajratiladi.	Foizlar va dividendlarni xalqaro standartga muvofiq tegishli guruhlariga bo‘lish.
<b>Soliqlar</b>	Soliq summasi umumiy xarajatlarga qo‘shiladi	Soliqlar alohida ko‘rsatib o‘tiladi	Soliqlarni operatsion faoliyatdan alohida taqdim etish zarur
<b>Investitsion faoliyat</b>	Asosiy vositalarni sotib olish yoki sotish bo‘yicha alohida qayd mavjud emas.	Foydali aktivlar sotib olinishi yoki sotilishi investitsion oqim sifatida ko‘rsatiladi.	Asosiy vositalar bilan bog‘liq pul oqimlarini investitsion faoliyatga ajratish.
<b>Moliyaviy pul oqimlari</b>	Kredit olish va qaytarish umumiy daromad bilan qo‘shilib ko‘rsatiladi	Kredit olish va to‘lovlar alohida moliyaviy oqimda aks ettiriladi	Kredit operatsiyalarini moliyaviy faoliyat toifasiga ko‘chirish kerak
<b>Hisobot shakli</b>	Oddiy uslubda berilgan, xalqaro shaklga mos emas	Xalqaro standartda belgilangan shakl talab qilinadi	Hisobotni xalqaro shaklga mos ravishda qayta tartibga solish

Bizning fikrimizcha pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotning “Investitsiya faoliyati” nomli bo‘limiga “Innovatsion faoliyat” bo‘yicha pul tushumlari va to‘lovlari 070-satrn kiritish bugungi iqtisodiy sharoitda muhim ahamiyatga ega. Amaldagi pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot shaklida innovatsion faoliyat bilan bog‘liq pul tushumlari va to‘lovlari investitsion faoliyatning umumiy ko‘rsatkichlari tarkibida, xususan, “Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish” nomli 070-satrida aks ettirilmoqda. Bizningcha, mazkur hisobot shaklidagi “Investitsion faoliyat” bo‘limidagi 070-satrn “Innovatsion faoliyat” bo‘yicha pul tushumlari va to‘lovlari

<sup>6</sup> Muallif ishlanmasi

deb nomlash va unga 071-satr “Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish bo‘yicha tushumlar va to‘lovlar”, 072-satr “Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bo‘yicha tushumlar va to‘lovlar”ni kiritish orqali boshqaruvning hisob-axborot ta’minotini shaffofligiga erishish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot ishida “Innovatsion faoliyat” bo‘yicha pul tushumlari va to‘lovlari nomli 070-satrini hisobot shaklida aks ettirish tartibi keltirilgan (3-jadval).

**3-jadval**

**“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasiga a‘zo korxonalarda pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot shaklga “Innovatsion faoliyat” nomli 070-satrni kiritish bo‘yicha takliflar<sup>7</sup> (ming so‘m)**

Taklif etilayotgan variant			
Investitsion faoliyat			
Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Kirim	Chiqim
Asosiy vositalarni sotib olish va sotish	060	598458	90300,02
Innovatsion faoliyat (satr 071+/-072)	070	40780,6	60829,2
Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish bo‘yicha tushumlar va to‘lovlar	071	-	2413,96
Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bo‘yicha tushumlar va to‘lovlar	072	40780,55	580415,20
Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish va sotish	080	936425,98	3835607,94
Investitsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to‘lovlari	090	-	-
Jami: investitsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi (satr 060+/-070+/-080+/-090)	100	0,0	2411072,59

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotga “Innovatsion faoliyat” (070-satr) kiritilishi natijasida, uning jami investitsion faoliyatga ta’sirini mutloq va nisbiy farqlar orqali tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Innovatsion faoliyat bo‘yicha mutloq farq (kirim va chiqim o‘rtasidagi farq) -20 048,6 ming so‘mni tashkil etadi, bu esa innovatsion investitsiyalarning hozircha xarajat talab qilayotganligini ko‘rsatmoqda. Nisbiy farq esa -32,95% bo‘lib, chiqimlar tushumlarga nisbatan sezilarli darajada ko‘proq ekanligini bildiradi.

Umuman olganda, jami investitsion faoliyat bo‘yicha sof pul kirimi 1 616 445,13 ming so‘m, sof chiqimi esa 4 569 566,32 ming so‘mni tashkil etadi. Innovatsion faoliyatning jami investitsion kirimdagi ulushi 2,52%, jami investitsion chiqimdagi ulushi esa 1,33% ni tashkil qilmoqda. Bu shuni anglatadiki, innovatsiyalarga yo‘naltirilgan mablag‘larning umumiy investitsiya portfelidagi hissasi hali past bo‘lib, ularning iqtisodiy samaradorligi uzoq muddatli istiqbolda baholanishi imkoniyati yaratiladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlarini faoliyat segmentlari bo‘yicha chuqurlashtirilgan tahlil qilish yondashuvi korxonaning biznes jarayonlari (BJ), mahsulot turlari (MT), bozor segmentlari (BS) va mijoz guruhlari (MG) bo‘yicha pul oqimlarini har bir segment bo‘yicha sof pul oqimi, intensivlik darajasi va foyda samaradorligi aniqlanib, rentabellik darajasi yuqori segmentlarni ustuvorlik asosida

<sup>7</sup>O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 08-oktabrdagi 181-sonli “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘iga asosan shartli misollar asosida muallif ishlanmasi

ABC tahlili, Pareto printsipi va CVP tahlili elementlari uyg'unlashtirilgan holda strategik moliyaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilishda kompleks analitik asos yaratadi.

#### 4-jadval

### “Osiyo grand tekstil” MChJda biznes jarayonlar bo'yicha 2024-yil uchun segmentlashtirilgan pul tushumlari, chiqimlari va sof pul oqimlari tahlili<sup>8</sup> (mln so'mda)

Yil	Biznes jarayoni	Tushumlar (mln. so'm)	Chiqimlar (mln. so'm)	Sof pul oqimi (mln. so'm)
2020	Xarid	–	12 126	–12 126
	Ishlab chiqarish	–	7 113	–7 113
	Sotuv	26 519	1 693	+24 826
	Logistika	–	1 417	–1 417
	Marketing/boshqaruv	–	2 731	–2 731
2021	Xarid	–	11 913	–11 913
	Ishlab chiqarish	–	7 619	–7 619
	Sotuv	29 137	1 726	+27 411
	Logistika	–	1 618	–1 618
	Marketing/boshqaruv	–	2 913	–2 913
2022	Xarid	–	11 519	–11 519
	Ishlab chiqarish	–	8 113	–8 113
	Sotuv	31 519	1 813	+29 706
	Logistika	–	1 713	–1 713
	Marketing/boshqaruv	–	3 113	–3 113
2023	Xarid	–	11 819	–11 819
	Ishlab chiqarish	–	8 213	–8 213
	Sotuv	33 113	1 913	+31 2
	Logistika	–	1 753	–1 753
	Marketing/boshqaruv	–	3 113	–3 113
2024	Xarid	–	12 113	–12 113
	Ishlab chiqarish	–	8 513	–8 513
	Sotuv	35 113	2 113	+33 113
	Logistika	–	1 813	–1 813
	Marketing/boshqaruv	–	3 213	–3 213

Jadvalda xarid, ishlab chiqarish, sotuv, logistika hamda marketing boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha har bir yil uchun alohida ko'rsatkichlar keltirilib, korxonaning moliyaviy faoliyati dinamikasi aks ettirilgan.

Yuqoridagi 4-jadval ko'rsatkichlari asosida korxonaning rentabellik darajasi, xarajatlar strukturasi va operatsion samaradorligi bo'yicha ilmiy xulosa chiqarish imkoniyati yaratiladi. 2020–2024-yillar davomida “Osiyo Grant Texstil” MChJda sotuvdan tushgan tushumlar 26 519 mln. so'mdan 35 113 mln. so'mga oshib, 4 yil ichida 32,4% ga o'sdi. Shu bilan birga, sof pul oqimi 24 826 mln. so'mdan 33 113 mln. so'mga yetib, 33,4% lik ijobiy o'sishni ko'rsatdi. Xarid xarajatlari 12 126 mln. so'mdan 12 113 mln. so'mga biroz pasaygan bo'lsa-da (–0,1%), ishlab chiqarish xarajatlari 7 113 mln. so'mdan 8 513 mln. so'mga oshib, 19,6% ga ko'paydi. Marketing va boshqaruv xarajatlari esa 2 731 mln. so'mdan 3 213 mln. so'mga yetib, 17,7% lik o'sishni aks ettirdi. Yuqoridagi ko'rsatkichlar korxonaning ichki

<sup>8</sup> Muallif ishlanmasi


infratuzilmasini mustahkamlash, bozor ulushini kengaytirish va mahsulot sifatini yaxshilashga qaratilgan strategik harakatlarini tasdiqlaydi.

Tahlil qilish uchun asosiy biznes jarayonlari bo'lib, xarid (ta'minot), ishlab chiqarish, sotuv (realizatsiya), logistika va yetkazish hamda boshqaruv va marketing kabilar hisoblanadi. Bunda, xomashyo, tovar, xizmatlar xaridi, Ishlab chiqarish xarajatlari, tayyor mahsulotni sotish, xizmat ko'rsatish, transport, ombor, yetkazish, reklama, IT, boshqaruv xodimlari kabi masalalar alohidalashtirilib har biri ochiqilanadi va oylar va yillar kesmida ularning o'zgarishi miqdorlarda aniqlanib, yakunida xulosalar tayyorlanadi.

Shuningdek, segmentlararo moliyaviy resurslarni taqsimlash, investitsiya ustuvorliklarini belgilash va strategik qarorlar qabul qilishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu yondashuv orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z pul oqimlarini nafaqat umumiy ko'rsatkichlar asosida, balki har bir faoliyat yo'nalishi, mahsulot guruhi yoki mijoz segmenti bo'yicha tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, rentabellik darajasi yuqori bo'lgan segmentlar aniqlanib, ularni rivojlantirishga qaratilgan moliyaviy strategiyalar shakllantirilishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Pul oqimlari tahlilining axborot ta'minoti va uni takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida operatsion faoliyat bo'yicha pul oqimlari tahlilining xususiyatlari, investitsion va moliyaviy faoliyat bo'yicha pul oqimlari tahlilini samarali yuritish yo'llari, pul oqimlarini samarali boshqarishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish va 2028-yilgacha bo'lgan prognozi ishlab chiqilgan.

Operatsion faoliyatda daromad va xarajatlar muvozanatini saqlash korxonaning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash bilan birga, ichki boshqaruv mexanizmlarining to'g'ri ishlashini ta'minlaydi. Bunda mahsulot tannaxsining optimallashtirilishi, resurslar sarfini nazorat qilish va foydani maksimallashtirishga qaratilgan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy ko'rsatkichlar monitoringi jarayonida korxonada trend tahlili orqali ma'lumotlarni turli davrlar kesimida solishtirilishi natijasida faoliyat samaradorligini vaqt o'tishi bilan baholash imkonini beradi.



**1-rasm. “Osiyo grand tekstil” MChJning 2020-2024 yillar davomida pul oqimlarining dinamik o'zgarishi<sup>9</sup>**

<sup>9</sup> Muallif ishlanmasi

Investitsion faoliyatda sof pul oqimi 2020-yildan boshlab 2021 va 2022-yillarda salbiy qiymatni ko'rsatib, mos ravishda -12 544 mln. so'm va -14 556 mln. so'm bo'lgan. 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich ijobiy darajaga chiqib, 12 544 mln. so'mni tashkil etgan. Eng yuqori ko'rsatkich esa 2024-yilda kuzatilgan bo'lib, 144 356 mln. so'mga yetgan. Shuningdek, asosiy faoliyat barqaror daromad keltiruvchi asosiy manba bo'lib qolmoqda. Investitsion faoliyatda esa so'nggi yillarda o'sish kuzatilib, sezilarli daromadga ega bo'lgan. Moliyaviy faoliyatda sof pul oqimi o'zgaruvchan bo'lib, ba'zi yillarda zarar ko'rsatilgan.

Moliyaviy faoliyatdan olingan sof pul oqimi yillar davomida nomutanosib bo'lgan. 2020-yilda bu ko'rsatkich -1 544 mln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda sezilarli o'sish kuzatilib, 14 652 mln. so'mga yetgan. Lekin 2021 va 2023-yillarda qayta tushishi kuzatilib, 2024-yilga kelib, 3 323 mln. so'm daromadga chiqqan.

“Betlis tekstil” MChJning 2020-2024-yillardagi moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanib beshta yig'ilgan omilni o'z ichiga olgan multiplikativ dinamik pul oqimi modelining birinchi variantini quyidagi (1) formula bo'yicha tadqiq qilamiz.

### 5-jadval

#### “Betlis tekstil” MChJning pul oqimining besh omilli dinamik tahlil<sup>10</sup> (koef.)

Omillarning nomlanishi va uning formulalari						
Yillar	Hisobot davrda pul oqimi va pul ekvivalentlarining ulushi	Olingan sof foydada pul oqimi va uning ekvivalentlarining ulushi	Davr uchun sotishdan tushgan umumiy daromad	Ish yoki xizmat ishlari umumiy qiymati daromad qamrov nisbati	To'liq narxda pul va uning ekvivalentlarining chiqib ketishini hosil qilish koeffitsiyenti	Pul oqimi dinami kasi (PODT)
	$x_1 = \frac{PTE^+}{POEBQ_1}$	$x_2 = \frac{POEBQ}{SSF}$	$x_3 = \frac{SSF}{DSTD}$	$x_4 = \frac{DSTD}{TMZ}$	$x_5 = \frac{TMZ}{PCHE^-}$	$PODT_1^5$
2020	-6.73	-4.996	0,030	1.155	0,758	0,88
2021	-11.14	-2.383	0,029	1.180	1.023	0,93
2022	-14.64	-4.749	0,015	1.128	0,821	0,97
2023	11.56	13.868	0,008	1.127	0,725	1,05
2024	48,86	9.494	0,004	1.146	0,525	1,12

$$PODT_1^5 = \frac{PTE^+}{PCHE^-} = \frac{PTE^+}{PCHE^-} \cdot \frac{POEBQ}{SSF} \cdot \frac{SSF}{DSTD} \cdot \frac{DSTD}{TMZ} \cdot \frac{TMZ}{PCHE^-} = \frac{PTE^+}{POEBQ} \cdot \frac{POEBQ}{SSF} \cdot \frac{SSF}{DSTD} \cdot \frac{DSTD}{TMZ} \cdot \frac{TMZ}{PCHE^-} = x_1 \cdot x_2 \cdot x_3 \cdot x_4 \cdot x_5 \quad (1)^{11}$$

Bu erda dastlab,  $PODT_1^5$  - pul oqimlarini besh omilga asoslangan dinamik tahlili;  $PTE^+$ -pul tushumlarining umumiy miqdori va ularning ekvivalentlari;  $PCHE^-$ - pul chiqimlarining umumiy miqdori va ularning ekvivalentlari;  $POEBQ$ - pul oqimlari va uning ekvivalentlari;  $SSF$  - to'qimachilik mahsulotlarini sotishdan olingan sof foyda;  $DSTD$ - shartnomalar bo'yicha joriy hisobot davrida sotishdan tushgan daromad;  $TMZ$  - xo'jalik yurituvchi subyektning hisobot davrdagi tovar moddiy zaxiralarining umumiy qiymati;  $x_1 = \frac{PTE^+}{POEBQ}$  -hisobot davrda pul oqimi va pul ekvivalentlarining

<sup>10</sup> “Betlis tekstil” MChJ moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>11</sup> A. Damodaran metodikasini to'qimachilik korxonalarini faoliyatiga tadbiiq etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan

umumiy balansdagi pul oqimi va uning ekvivalentlarining ulushi;  $x_2 = \frac{POEBQ}{SSF}$  - olingan sof foydadagi pul oqimi va uning ekvivalentlarining umumiy qoldig'ining ulushi;  $x_3 = \frac{SSF}{DSTD}$  -davr uchun sotishdan tushgan umumiy daromad;  $x_4 = \frac{DSTD}{TMZ}$  -ish yoki xizmat ishlari umumiy qiymati, daromad qamrov nisbati;  $x_5 = \frac{TMZ}{PCHE^-}$  -to'liq narxda pul va uning ekvivalentlarining chiqib ketishini hosil qilish koeffitsiyenti.

Multiplikativ dinamik pul oqimlari modeli xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul o'tkazmalarini boshqarishda va turli omillarni samarali boshqarishda qo'llaniladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2022-yilda mablag' yetishmasligining paydo bo'lishi, mablag'larning kirib kelishiga nisbatan tezroq o'sishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, daromadlarni to'liq qoplash koeffitsiyentining pasayishi o'z mablag'larini taqdim etish ko'rsatkichlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Yuqoridagi besh omilga asoslangan pul oqimini tahlil qilishga yana ikki HDSF (soliqdan oldingi foyda) va MNFS (moliyaviy xarajatlar va daromad solig'i chegirmasidan oldingi foyda) omilni qo'shgan holda jami yetti omilli (2) modelni taklif qilamiz.

## 6-jadval

### “Betlis tekstil” MChJning pul oqimlariga omillarning ta'sirini aniqlashning besh omilli dinamik tahlili<sup>12</sup> (koef.)

Yillar	Omillarning nomlanishi va formulalari					Pul oqimi dinamikasi natijalari
	Sotishdan tushgan daromad hajmi	Joriy aktivlarning umumiy aylanmasi	Joriy likvidlik koeffitsiyent	Majburiyatlarni qoplash uchun pul oqimining sof nisbati	Naqd pul oqimi qoldig'i	
	$x_1 = \frac{PTE^+}{DSTD}$	$x_2 = \frac{DSTD}{JAO'Q}$	$x_3 = \frac{JAO'Q}{MO'BQ}$	$x_4 = \frac{MO'BQ}{POEBQ}$	$x_5 = \frac{POEBQ}{PCHE^-}$	$PODT_2^5$
2020	0.99	1.304	0.839	-6.187	-0.129	-0.727
2021	0.76	1.860	0.900	-8.759	-0.082	-1.025
2022	1.01	2.144	0.817	-8.274	-0.064	-1.077
2023	1.34	2.209	0.759	5.139	0.095	1.116
2024	1.70	1.127	1.229	20.760	0.021	0.783

$$PODT^7 = \frac{PTE^+}{DP^-} \cdot \frac{PTE^+}{PCHE^-} \cdot \frac{POEBQ}{POEBQ} \cdot \frac{SSF}{SSF} \cdot \frac{DSTD}{DSTD} \cdot \frac{TMZ}{TMZ} \cdot \frac{HDSF}{HDSF} \cdot \frac{MNFS}{MNFS} = \frac{PTE^+}{POEBQ} \cdot \frac{POEBQ}{SSF} \cdot \frac{SSF}{HDSF} \cdot \frac{HDSF}{MNFS} \cdot \frac{MNFS}{DSTD} \cdot \frac{DSTD}{TMZ} \cdot \frac{TMZ}{PCHE^-} = x_1 \cdot x_2 \cdot x_3 \cdot x_4 \cdot x_5 \cdot x_6 \cdot x_7 \quad (2)^{13}$$

Bu yerda:  $PODT^7$ - pul oqimlarini yetti omilga asoslangan dinamik tahlili; HDSF- hisobot davr uchun soliq to'languncha bo'lgan foyda; MNFS-moliyaviy natijalardan chegirib tashlangan foyda solig'i;  $x_1 = \frac{PTE^+}{SSF}$  -hisobot davrda pul oqimi va pul ekvivalentlarining umumiy balansidagi naqd pul oqimi va uning ekvivalentlarining ulushi;  $x_2 = \frac{POEBQ}{SSF}$  - hisobot davrda olingan sof foydadagi pul oqimi va uning ekvivalentlarining umumiy qoldig'ining ulushi;  $x_3 = \frac{SSF}{HDSF}$  - hisobot davr uchun sof foydaning umumiy soliq yuki;  $x_4 = \frac{HDSF}{MNFS}$  -soliqdan oldingi foyda nisbati moliyaviy xarajatlar va daromad solig'i chegirib oldin foyda uchun;  $x_5 = \frac{MNFS}{DSTD}$  - loyihalarini amalga oshirishning umumiy rentabelligi;  $x_6 = \frac{DSTD}{TMZ}$  -ishlab chiqarish ishlarining

<sup>12</sup> “BETLIS TEKSTIL” MChJning 2019-2023-yillardagi moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>13</sup> A.Damodaran metodikasini to'qimachilik korxonalarini faoliyatiga tadbiiq etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan

umumiy qiymatini daromad qamrovga nisbati;  $x_7 = \frac{TMZ}{PCHE^-}$  – to‘liq narxda pul va uning ekvivalentlarining chiqib ketishini hosil qilish koeffitsiyentidir.


2020 va 2021-yillarda pul  $x_1$  va  $x_2$  salbiy qiymatlarga ega bo‘lgan manfiy sababli, umumiy pul oqimi dinamikasi birligini ko‘rsatmoqda; 2022-yil ham pul oqimi dinamikasini  $x_1$  va  $x_2$  omillari manfiyligi sababli, umumiy pul oqimi dinamikasi ham past bo‘lgan. 2023-2024-yillarda pul oqimi dinamikasi  $x_1$  va  $x_2$  omillar keskin o‘zgarishga uchragan va yuqori bo‘lgan.

Yuqorida taklif qilingan moliyaviy ko‘rsatkichlarni moliyaviy hisobot ma’lumotlari bilan bog‘lash ham mumkin. Bu vaqtda, dinamik pul oqimining besh omilli modelning 2-varianti quyidagi (3) formula bilan beshta omil asosida shakllantirildi:

$$PODT_2^5 = \frac{PTE^+}{PCHE^-} = \frac{PTE^+}{PCHE^-} \cdot \frac{POEBQ}{POEBQ} \cdot \frac{JAO'Q}{JAO'Q} \cdot \frac{DSTD}{DSTD} \cdot \frac{MO'BQ}{MO'BQ} = \frac{PTE^+}{DSTD} \cdot \frac{DSTD}{JAO'Q} \cdot \frac{JAO'Q}{MO'BQ} \cdot \frac{MO'BQ}{POEBQ} \cdot \frac{POEBQ}{PCHE^-} = x_1 \cdot x_2 \cdot x_3 \cdot x_4 \cdot x_5 \quad (3)^{14}$$

Bu erda  $PODT_2^5$  - besh omilga asoslangan dinamik pul oqimi;  $JAO'Q$  – hisobot davrda joriy aktivlarning o‘rtacha qiymati;  $MO'BQ$  - davr uchun qisqa muddatli majburiyatlarning o‘rtacha balans qiymati (qoida tariqasida, o‘rtacha davr uchun qiymat ko‘rib chiqilayotgan davr boshida va oxirida qiymatlarning arifmetik o‘rtacha qiymati sifatida hisoblanadi);  $x_1 = \frac{PTE^+}{DSTD}$  - davr uchun sotishdan tushgan daromad hajmi;  $x_2 = \frac{DSTD}{JAO'Q}$  - davr uchun joriy aktivlarning umumiy aylanmasi;  $x_3 = \frac{JAO'Q}{MO'BQ}$  - korxonaning joriy likvidlik koeffitsiyenti;  $x_4 = \frac{MO'BQ}{POEBQ}$  - majburiyatlarni qoplash uchun pul oqimining sof nisbati;  $x_5 = \frac{POEBQ}{PCHE^-}$  - pul oqimi va uning ekvivalentlarining umumiy balansining pul oqimi va uning ekvivalentlarining umumiy hajmidagi ulushi.

Korxonalarda pul oqimlarini samarali boshqarishga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning 2028-yilgacha prognozini ishlab chiqish jarayoni bayon etilgan. Ekonometrik modellar, jumladan, ARIMA va Holt-Winters eksponensial silliqlash usullari yordamida vaqt qatori tahlili o‘tkazildi.



2-rasm. 2028-yilgacha “OSIYO GRANT TEXSTIL” MChJning pul oqimlari prognozi<sup>15</sup>

<sup>14</sup> A. Damodaran metodikasini to‘qimachilik korxonalarini faoliyatiga tadbiq etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan

<sup>15</sup> Adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

